

ASALARICHILIKNI RIVOJLANTIRISH VA UNING INSON HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Djumabayeva Sabrina

*Abu Ali ibn Sino nomidagi yosh biologlarva kimyogarlar ixtisoslashtirilgan
maktabi*

Annotatsiya: *qishloq xo'jaligining tarmoqlaridan biri, asalarilarni asal, mum va boshqa mahsulotlar (asalari suti, asalari yelimi, asalari zahari, propolis, perga) olish, shuningdek qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish uchun, ularni changlatish maqsadlarida boqish hisoblanadi. Asalarilar qishloq xojaligining ekinlariga katta foyda beradi, birgina beda va paxta hosilini yillik 3 barobar oshiradi.*

Kalit so'zlari: *asalarichilik, asal, ona asalari, ishchi asalari, erkak asalari, mum, perga, propolis, asalari suti, asalari zahari, asalari yelimi.*

Asalarichilik – qishloq xo'jaligining tarmoqlaridan biri, asalarilarni asal, mum va boshqa mahsulotlar (*asalari suti, asalari yelimi, asalari zahari, propolis, perga*) olish, shuningdek qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini oshirish uchun, ularni changlatish maqsadlarida boqish hisoblanadi. Asalarilar qishloq xojaligining ekinlariga katta foyda beradi, birgina beda va paxta hosilini yillik 3 barobar oshiradi.

Asalari oilasi tarkibi 3ga bo'linadi. Bular *ona asalari, ishchi* va *erkak asalarilar* hisoblanadi. *Ona asalarining* qorin qismi cho'ziq, to'la, qanotlari faqat yarmini yopib turadi, uning yagona vazifasi avlodni davom ettirishdan iborat. Uyada har doim unga boshqa arilar hamrohlik qiladi, ularning ba'zilarining asosiy *ishi ona ariga g'amxo'rlik* qilishdir. U sekin va ulug'vorlik bilan harakat qiladi. Bir kun davomida bir yarim-ikki mingta tuxum qo'yadi. *Ishchi asalari* aslida yaxshi rivojlanmagan urg'ochi aridir. Jinsiy organlari rivojlanmaganligi uchun u tuxum qo'yolmaydi, ammo onalik *instiktini* saqlab qolganligi uchun g'umbaklarga g'amxo'rlik qiladi. Ular oilada 1000000 taga yaqin ham bo'lishadi. Ular uyaga asal, gul changi va suv olib keladi. Uyani tozalash *ona asalari, erkak asalari* va

lichinkalarni boqish, uya qurish vazifalarini bajaradi. Erkak asalari oilada yaxshi sharoit yaratilganda bahor va yoz oylarida ko'payadi. Erkak arini ishchi asalarilaridan ajratish oson, chunki u ishchi aridan yirikroq bo'lib, uning og'irligi o'rta hisobda 0,2gr ga teng, ya'ni ishchi aridan 2 marotaba og'ir. Erkak arilar oilada hech qanday ish bajarmaydilar. Ularning vazifasi faqat ona arini ovqatlantirishdan iboratdir. Shuning uchun bahor va yoz oylarida har qaysi ari oilasi bir nechta yuzlab erkak arilarni uyadan chiqarishadi. Asalarilar nafaqat tabiiy usulda ekinlarni changlatib xalq xo'jaligiga foyda beradi, balki tibbiyotda ham ular beradigan shifobaxsh ne'matlar katta ahamiyatga ega. Bularidan bir nechtasi bilan tanishib chiqamiz. **Asal yoki bol** - ishchi asalarilar o'simliklar gulidagi shira (nektar)ni organizmida qayta ishlash yo'li bilan hosil qiladigan shirin suyuqlik. Asalari asalni uya kataklariga o'zi uchun oziq qilib g'amlaydi. Asalda odam uchun foydali moddalarning 70 dan ortiq turi bor. **Asalari mumi** - ishchi asalarilar mum bezlarida ishlab chiqaradigan yog'simon suyuqlik. Mumni faqat yosh arilar ishlab chiqaradi. Asosan, kosmetikada, oziq-ovqat sanoati-da, tibbiyotda va texnikada ishlatiladi. **Propolis** - yopishqoq sharbatni o'zlarining tupuklari va polenlari bilan aralashtirib, asalarilar yopishqoq, quyruq rangli plastilinga o'xshash massaga keltirishadi. Propolis tarkibida flavonoidlar mavjud bo'lib, ular bo'g'imlar, shilliq pardalar va teri kasalliklarida kuchli yallig'lanishga qarshi ta'sirga ega. **Asalari suti** - Bu sutni bevosita ona asalari uyasidan olish mumkin. Asalari suti asab, yurakqon-tomir, siydik tanosil tizimi, ovqat hazm qilish, bo'g'imlar va mushak, o'pka va nafas olish tizimi faoliyatiga foydali tasir etadi. **Asalari zahari** - apitoksin (lotincha: apis – asalari, yunoncha: toxikon – zahar) – ishchi asalarilar tanasidagi ipsimon bezlari ajratadigan o'tkir hidli achchiq, och sariq, shaffof suyuqlik. Qon tomirlarini kengaytirish va moddalar almashinuvini yaxshilashda foydalaniladi. **Perga** - asalari yig'ib, kataklarga joylagan va asal bilan aralashgan o'simlik changi, asalarilar ozig'i. Pergadan, asosan, bahorda asalarilar oilasi ko'payadigan davrda foydalaniladi.

Asal o'z tarkibiga bir qancha vitaminlar va prebiotiklarni saqlaydi. Asal o'z tarkibiga B, B1, B2, B3, B5, B6, B9, B12 guruhlarini vitaminlari, shuningdek, A, C,

H, E, K, PP, kaliy, fosfor va boshqa vitaminlarni saqlaydi. Olimlar tajriba asosida asalda mis, kalsiy, rux, temir, magniy, marganes, brom makro va mikroelementlarining mavjudligini aniqladilar. Shuning uchun asal eng foydali mahsulotlardan biri hisoblanadi. 1g asalda 30 mkg askorbin kislotasi (C), 10 mkg tokoferola (E), 4 mkg pantogen kislotasi (B), 3,8 mkg biotin (H), 3,1 mkg niatsin (PP) va 3 mkg piridoksin (B2) kabi vitaminlar uchraydi. Asalda intertaza, diastaza katalaza fermentlari, o'z bo'lsada oqsil, yog'lar hamda to'qimalar oralig'ida moddalarni parchalovchi quyidagi proteaza, lipaza, glinogenaza, fosfolinaza, inulaza va boshqa ko'plab fermentlar uchraydi. Yetilgan asalda 16-21%, o'rta hisobda 18% suv bo'ladi. ayrim hollarda arilar zaharli asal olib keladilar. Radodendron, azaliya, botqoq bagulnigi, oddiy biryuchina va chemirintsa o'simliklari gullaridan yig'ilgan sharbatlar tarkibida, hamda ayrim bangidevona va belladonna kabi o'simliklar gulchangida ham zaharli xususiyatlar uchraydi. Bu xildagi asallar odamlar uchun zaharli, ammo arilarga ta'sir qilmaydi. Bunday asallardan 20 - 100g iste'mol qilgan insonda 15-20 daqiqa o'tib zaharlanish alomatlari kuzatiladi, xususan, bosh og'rishi, aylanishi, muzday ter oqishi, ich ketish, ko'ngil aynishi yoxud ko'karib ketish, nafas olish qiyinlashuvi, yurak urishining sekinlashuvi, oyoq qo'llarda tomir tortishishi alomatlari kuzatiladi va ertasiga inson o'ziga kelib, o'zini yaxshi his qila boshlaydi.

Asalarichilikda shu paytgacha inson tomonidan birorta ham ari zoti yaratilmagan, ammo shunga qaramasdan tabiat, iqlim sharoitiga moslashgan ari zotlari bor. Mana shunday tabiat saralab yetishtirgan ari zotlari "aborigen zoti" deb ataladi. Arilarning bir necha ko'plab turlari bo'lib, ulardan: "Himoloy hymenopterasi", "Kavkaz asalarisi", "Osiyo asalarisi", "Italiya sariq asalarisi", "Uzoq Sharq asalarisi", "O'rta Rossiya o'rmon qoramtir ari zot"-lari keng tarqalgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi (2000-2005).
2. A.I. Isamuhammedov H.K. Nikadambayev "Asalarichilikni rivojlantirish asoslari".
3. Graut R. "Пчела и улей".
4. MOSCSP.RU